

# Orol dengizi va orolbo'yining geoekologik muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy ishlar natijalari muhokama qilindi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limida "Orol dengizi va orolbo'yining geoekologik muammolari va ularning innovatsion yechimi" mavzusida ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi.

Seminarda O'zR FA Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, O'zR FA Seysmologiya instituti, O'zbekiston milliy universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti va Nukus davlat pedagogika institutlari yetakchi olimlari, tadqiqotchilari ishtirot etdi.



Seminarning asosiy maqsadi O'zR FA Seysmologiya instituti va O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti olimlari hamda professorlari, magistrantlari bilan ilmiy hamkorlik, ilmiy tajriba almashish, kelgusida birgalikda amalga oshiriladigan ilmiy

tadqiqotlarni o'zaro kelishib olishdan iboratdir.

Ilmiy seminarda Orol dengizi qurigan tubidan ko'tarilayotgan tuz va qum migratsiyasini GIS texnologiyalari asosida kartografik modellashtirish, Orolbo'yi mintaqasi tabiiy komplekslarni zamonaviy GAT texnologiyalari asosida tizimli kartalashtirish, Qashqadaryo viloyatida tabiatdan noto'g'ri foydalanish oqibatlari va uni yaxshilashning ekologik-geografik asoslari, Amudaryoning quyi oqimi suv-botqoq qushlarining ekologiyasi, Orolbo'yi mintaqalaridagi tuz bo'roni aerozollarini ekologik baholash, Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari mavzularida ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.